

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI TASVIRIY SAN’AT VA CHIZMACHILIK FANI
O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TASVIRIY SAN’AT VA CHIZMACHILIK FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya tasviriy san’at va chizmachilik o‘quv fanlaridan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning tasviriy san’at va chizmachilik fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Tasviriy san'at va chizmachilik fanlari o'qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, hammasi bo'lib 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun jami 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan *yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)* foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. TASVIRIY SAN'AT		20 ta
1.1. Tasviriy san'at asoslari (1–10-savollar)		
Tasviriy san'at asoslari	– <i>tasviriy san'at turi va janrlarini bilish;</i> – <i>rangtasvir va rangshunoslik asoslarini tahlil qilish;</i> – <i>rang turlarini farqlash;</i> – <i>asosiy va hosila ranglarni hosil qilish;</i> – <i>rang tuslari, axromatik va xromatik ranglarni aniqlash;</i> – <i>iliq va sovuq ranglar, dastgohli grafika san'atini bilish;</i> – <i>plakat grafikasi gorelyef, barelyef, relyef va kontrelyefni farqlash;</i> – <i>mahobatli va dastgohli haykaltaroshlikni tushunish;</i> – <i>natyurmort, manzara janri va rassomlar asarlari, portret janri va shu janrda ishlangan asarlar, marina, batal va tarixiy, maishiy janrlari va asarlarini tahlil qilish;</i> – <i>tasviriy san'at oqim va yo'nalishlari, dunyo san'ati ko'rgazmalari, grafika va uning turlari, kitobat san'ati, haykaltaroshlik, mayda plastik haykaltaroshligi, haykaltaroshlar asarlaridan namunalari tahlil qilish.</i>	10 ta
1.2. Amaliy bezak san'at (11-13-savollar)		

Amaliy bezak san'at	– amaliy bezak san'ati va uning turlarini bilish; – naqsh elementlari, 10 ta gul naqshini farqlash, naqsh maktablarining farqini bilish; – naqsh turlari asosida kompozitsiyalarini va amaliy bezak san'ati ustalarining ishlarini tahlil qilish.	3 ta
1.3. Me'morlik san'ati (14-15-savollar)		
Me'morlik san'ati	– me'morlik san'ati va uning turlarini farqlash; – zamonaviy va qadimiy me'morchilik san'atini va taniqli memperlarning ishlarini tahlil qilish.	2 ta
1.4. Miniatyura san'ati (16-17-savollar)		
Miniatyura san'ati	– miniatyura san'ati elementlari va kompozitsiya yaratish haqida tushunchaga ega bo'lish; – miniatyura san'ati namunalari va maktablarining namoyandalarini farqlash va ishlarini tahlil qilish.	2 ta
1.5. Dizayn san'ati (18-savol)		
Dizayn san'ati	– dizayn san'at turlari, avtomobil va liboslar dizayni interyer, eksterer dizaynini tushunish.	1 ta
1.6. Zamonaviy tasviriy san'at turi va yo'nalishlari (19–20-savollar)		
Zamonaviy tasviriy san'at turi va yo'nalishlari	– fluid-art san'atini bilish; – pop-art san'atini bilish; – monotipiya, klyaksografiya, va grezayl texnikasini bilish; – grafiti san'ati va uning turlari, street-art san'atini bilish.	2 ta
2. CHIZMACHILIK		15 ta
2.7. Grafik savodxonlik asoslari (21-27-savollar)		

Grafik savodxonlik asoslari	– <i>chizmalarni taxt qilish;</i> – <i>standart, masshtab, chiziqli turlarini bilish;</i> – <i>o'lcham qo'yish qoidalari, ko'rinishlar, asosiy va bosh mahalliy ko'rinishlarni farqlash;</i> – <i>aksonometrik proyeksiyalar haqida tushunchaga ega bo'lish, o'qlarning joylashishi detalining frontal dimetrik proyeksiyasi, detalining izometrik proyeksiyasi tutashmalarini tushunish;</i> – <i>proyeksiyalash usullarini farqlash;</i> – <i>markaziy va parallel proyeksiyalash oktant va epyur haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish;</i> – <i>kesim va qirqim turlari va ularning farqi, ko'rinishning yarmi bilan qirqimning yarmini birlashtirish, ko'rinishning qismini qirqimning qismi bilan birlashtirib tasvirlashni bilish.</i>	7 ta
2.8. Mashinasozlik chizmalari (28-31-savollar)		
Mashinasozlik chizmalari	– <i>ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarni farqlash;</i> – <i>rezbalar va ularni chizmalarda tasvirlash;</i> – <i>oddiy yig'ish chizmalarini o'qish;</i> – <i>oddiy yig'ish chizmalarini tahlil qilish.</i>	4 ta
2.9. Qurilish chizmalari (32-35-savollar)		
Qurilish chizmalari	– <i>qurilish chizmalarini o'qish;</i> – <i>qurilish chizmalar elementlarini farqlash;</i> – <i>qurilish chizmalarida kesimning tasvirlay olish;</i> – <i>bino plani, qirqimi va fasadini tahlil qilish.</i>	4 ta

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish.	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta

2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglililik va faollik, ko‘rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo‘llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to‘g‘ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to‘g‘ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo‘llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o‘yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish;	7
2.2. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o‘qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o‘qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o‘qitish bo‘yicha berilgan ta’limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
Jami		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezoni

Test topshiruvchining umumiy balini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. 8-sinf Chizmachilik I.Raxmonov, D.Yo'ldosheva, M.Abduraxmonova "O'qituvchi" Toshkent 2019.
2. 8-sinf Chizmachilik I.Raxmonov Toshkent "O'zbekiston" 2014.
3. 9-sinf Chizmachilik I.Raxmonov, D.Yo'ldosheva, M.Abduraxmonova "O'qituvchi" Toshkent 2019.
4. 9-sinf Chizmachilik I.Raxmonov Toshkent-"O'zbekiston" 2014.
5. 5-sinf Tasviriy san'at T.Kuziyev, S.Abdirasilov, O'.Nurtoev, A.Sulaymonov Toshkent "O'zbekiston" 2020.
6. 5-sinf Tasviriy san'at B.Yunusova, N.Vaxabova, Z. Xashimova, R.Isroilova Toshkent- "Novda" nashriyoti-2024.
7. 4-sinf Tasviriy san'at R.Ismailova "Novda Edutainment" 2023.
8. 3-sinf Tasviriy san'at R.Ismailova "Novda Edutainment" 2023.
9. Tasviriy san'at asoslari R. Hasanov G'.G'ulom Toshkent 2009.
10. Amaliy bezak san'ati. O'quv qo'llanma. Sh.Sh. Bakayev Buxoro-2021.
11. 6-sinf Tasviriy san'at X.Muratov, D.Mirxakimova, K.Abdullayev Respublika ta'lim markazi 2022 yil
12. 7-sinf Tasviriy san'at A.Sulaymonov, S. Muxammedjanova, Z.Sulaymonova, D.Xaytmetov Respublika ta'lim markazi 2022 yil
13. "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi". S.F.Abdirasilov. "Ilm Ziyo" nashriyot uyi. 2006; 2011.
14. "Tasviriy san'at tarixi" O. N. Shomurodov. "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2021
15. "Amaliy san'ati" Gulomov K. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2007
16. "Chizmachilik" I. Rahmonov, A. Ashirboyev, A.Valiyev, B.Nigmanov "Vorish nashriyot" MCHJ Toshkent-2016.
17. M.Muxamedova. Me'morchilik asoslari. -T.: «Fan va texnologiya», 2018
20. Internet tarmoqlari asosida olingan rassomlar asarlari haqidagi ma'lumot.

VIII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: "Bayoz" nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O', Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsiya-ziyo" nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standarti.
5. Sh.R.Qobilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2014
19. S.S. Abdullayev Tasviriy san'at o'qitish metodikasi Toshkent-2014

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.